

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISLOMOV ALISHER NURILLAYEVICH

**GAZ KONDENSATINI BARQARORLASHTIRISHDA ISSIQLIK
ALMASHINISH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA
ISITISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Islomov Alisher Nurillayevich

Gaz kondensatini barqarorlashtirishda issiqlik almashinish
qurilmasini takomillashtirish asosida isitish jarayonini jadallashtirish.....3

Исломов Алишер Нуриллаевич

Интенсификация процесса нагрева газового конденсата
при его стабилизации на основе совершенствования теплообменного устройства....21

Islomov Alisher

Intensification of the process of heating gas condensate during
its stabilization based on the improvement of the heat exchange device.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISLOMOV ALISHER NURILLAYEVICH

**GAZ KONDENSATINI BARQARORLASHTIRISHDA ISSIQLIK
ALMASHINISH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA
ISITISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.I.PhD/I3558 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bstu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot – ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduraxmonov Olim Rustamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Do'stov Hamro Bozorovich
kimyo fanlari doktori, professor

Ismailov Oybek Yuliboyevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 25-mart soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84, Faks: (+99865)223-78-84, e-mail: (bdtu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (493-raqam bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 12-mart kuni tarqatildi.
(2025 yil «05» dekabrda №23 raqamli reyestr bayonnomasi)



S.F.Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

A.T.Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

H.B.Do'stov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, kimyo fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiya)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tabiiy gaz va neft xomashyosi issiqlik va energiya asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Shu sababdan, ularni qayta ishlab, jahon standarti talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan qurilmalarning konstruksiyasini takomillashtirish, samarali va xavfsiz ishlashini ta'mirlash, ishlash muddatini uzaytirish, issiqlik yo'qotishlarini kamaytirish orqali energiya samaradorligini oshirish hamda energiya tejamkor texnologiyalarni yaratishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda ishlab chiqarish sanoatidagi issiqlik almashinish qurilmalarining ish unumdorligini oshirish va energiya tejamkor texnologiyalarini yaratish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shunga ko'ra, uglevodorod xomashyolarini uzatish, issiqlik berishni samarali tashkil etish, issiqlik samaradorligini oshirish, issiqlik yo'qotishlarni kamaytirish, issiqlik almashinish qurilmalariga tutashgan quvurlardagi uglevodorod oqimlarining gidrodinamik rejimlarini nazorat qilish bilan birga energetik sarfini qisqartirish imkonini beruvchi issiqlik almashinish qurilmalarining ixcham va yangi texnologiyalarini yaratish kabi asosiy yo'nalishlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda neft-gaz tarmog'ida ishlab chiqarishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, hajmi va sifatini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish"¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu yo'nalishda, issiqlik almashinish qurilmalarida xomashyo oqimlarining maqbul gidrodinamik rejimlarini tashkil etish, gaz kondensatini barqarorlashtirishda issiqlik almashinish qurilmasini takomillashtirish asosida isitish jarayonini jadallashtirish hamda ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnika va texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi PF-3238-son "Zamonaviy energiya samarador va energiya tejaydigan texnologiyalarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-sonli "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyulidagi PQ-309-son "Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2022-yil 12-dekabrda PQ-436-sonli "Yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz va xorijiy davlatlar tadqiqotchilari tomonidan uglevodorod xomashyosini qayta ishlashda takomillashtirilgan qurilmalar hamda texnologik jarayonlarning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan xorij olimlaridan: Barnes David, Besant Tanzi, Demargne Albert, Kawakubo Masaaki, Yamamoto Ken, A.I.Skoblo, A.I.Vladimirov, S.A.Axmedov, A.G.Kasatkin, A.N.Planovskiy, O.F.Glagoleva, V.M.Kapustin, A.K.Manovyan, hamda respublikamiz olimlari: N.U.Rizayev, Z.S.Salimov, N.R.Yusupbekov, A.Artikov, T.Z.Raxmonov, H.S.Nurmuhamedov, S.G‘.Zokirov, A.A.Xudayberdiyev, Sh.M.Saydaxmedov, O.Yu.Ismailov, O.R.Abduraxmonov va boshqalar keng miqyosidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Ushbu olimlar tomonidan neft kimyosi, kimyoviy texnologiyasi, neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi, neft va gazni qayta ishlash jarayonlarining nazariy asoslarini rivojlantirish hamda issiqlik almashinish qurilmalarini hisoblash va loyihalash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek, ular o‘zlarining samarali ilmiy faoliyatlari orqali issiqlik almashinish qurilmalarining ish unumdorligini oshirish, issiqlik almashinish jarayonini jadallashtirish va energiya tejamkor texnologiyalarni tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Biroq, issiqlik almashinish qurilmasini takomillashtirish, unda amalga oshiriladigan jarayonlar gidrodinamikasini o‘rganish va issiqlik almashinish jarayonini jadallashtirish orqali qurilmaning ichki quvurlarida issiqlik berish koeffitsiyentini va issiqlik almashinish jarayoni samaradorligini oshirish hamda xomashyo oqimlarining gidrodinamik rejimlarini issiqlik almashinish samaradorligiga va xomashyoni uzatishda energiya sarfini kamaytirish borasidagi tadqiqot ishlari hozirgi vaqtga qadar o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari rejasiga muvofiq – “Neft-gaz kimyo sanoatida energiya va resurs tejamkor texnologiyalar muammolari va ularning yechish choralari” 8-yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gaz kondensatini barqarorlashtirishda quvurli issiqlik almashinish qurilmasini takomillashtirish asosida isitish jarayonini jadallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

issiqlik almashinish qurilmalarining ahamiyati, ularda boradigan jarayonni tavsiflovchi qonuniyatlar va shuningdek, ushbu qurilmalarning samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

tajriba qurilmasini ishlab chiqish hamda tajriba-sinovi uchun olingan gaz kondensati aralashmalari, ularning tarkibi va issiqlik-fizik xossalarini tadqiq qilish;

gaz kondensatini barqarorlashtirishda isitish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning muhimligini tadqiq qilish;

issiqlik almashinish jarayoniga ta'sir etuvchi issiqlik berish, issiqlik o'tkazish va issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentlarini hamda uzatilayotgan issiqlik miqdorini hisoblash va ularni issiqlik samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish;

gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasini takomillashtirish hamda unda boradigan issiqlik almashinish jarayonining moddiy va issiqlik balanslarini aniqlash;

tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash va sanoatda taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasini ishlab chiqarishga joriy etishni tadbir etish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida gaz kondensatini barqarorlashtirish jarayonida qo'llaniladigan qobiq quvurli issiqlik almashinish qurilmasi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini issiqlik almashinish qurilmasida gaz kondensatni isitish jarayonida hosil bo'ladigan bug'lanish va issiqlik almashinish jarayoni tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarish davomida gaz kondensatining fizik va issiqlik-fizik ko'rsatkichlarini aniqlash, tajriba-sinovidan olingan natijalarni grafikda ifodalash, isitish jarayonining jadallashish darajasini hisoblash hamda to'liq faktorli eksperimentlarni rejalashtirish, texnologik jarayonlarni matematik-statik modellashtirish va eksperimental natijalarni qayta ishlash yordamida regression tenglamalar tuzish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

takomillashtirilgan issiqlik almashinish qurilmasi quvurlarida isitish natijasida hosil bo'lgan bug'ni chiqarish hisobiga, isitish jarayonining ko'rsatkichlari, ya'ni gaz kondensatining issiqlik berish koeffitsiyenti $182,8 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ dan $227 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ga va issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti $110 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ dan $125 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ gacha oshganligi ilmiy asoslangan;

issiqlik almashinish qurilmasida xomashyoni isitishdan quvurlar ichida hosil bo'lgan bug' ulushini 20 % dan 1 % gacha kamaytirish hisobiga isitish jarayonining harorati $15 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha ortishi ilmiy isbotlangan;

issiqlik almashinish qurilmasi quvurlarining ichida hosil bo'lgan bug'ga ta'sir etuvchi omillarning ya'ni isitish jarayonining harorati va gaz kondensati namunalarining fraksion tarkibiga ta'sir etishi ilmiy isbotlangan;

isitish qurilmasining quvurlarida bug' hissasini kamayishi hisobiga issiqlik tashuvchidan quvur tashqi devoriga va quvur ichki devoridan isitilayotgan suyuqlikka uzatilayotgan issiqlik miqdori 1,66 martaga ortishi isbotlangan;

qopqoq konstruksiyasi takomillashtirilgan issiqlik almashinish qurilmasining quvurlarida bug' hissasini kamayishtirish natijasida isitish jarayoni jadallashishi hamda issiqlik va energiya sarfi 12 % gacha kamayishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

issiqlik almashinish qurilmasida gaz kondensatini isitishdan uning quvurlari ichida hosil bo‘ladigan bug‘ni chiqarish hisobiga yuqori samarali quvurli issiqlik almashinish qurilmasining energiyatejamkor, qopqoq konstruksiyasi ishlab chiqilgan hamda tajriba qurilmasida turlicha zichlikka ega bo‘lgan gaz kondensatining namunalari qayta ishlangan;

tajriba qurilmasida qizdirilayotgan gaz kondensatidan hosil bo‘ladigan bug‘ni qurilmaning qopqoq qismida o‘rnatilgan klapan orqali chiqarish hisobiga isitish jarayonini jadallashtirishga erishildi va natijada, qurilma quvurlari ichida gaz kondensatining issiqlik berish koeffitsiyentini 1,24 martagacha oshganligi asoslangan;

issiqlik almashinish qurilmasi quvurlari ichida hosil bo‘lgan bug‘ni kamaytirishdan quvurlarda uzatilayotgan issiqlik miqdori ortib, undagi issiqlik o‘tkazish koeffitsiyenti 1,14 martaga oshishi natijasida isitish jarayonining jadallashganligi asoslangan;

gaz kondensatini barqarorlashtirishda issiqlik almashinish qurilmasida boradigan isitish jarayonining maqbul rejimlari hamda quvurlar ichida hosil bo‘lgan bug‘ni chiqarishni tadqiq qilishning Matlab dasturidagi kompyuter modeli yaratilgan va jarayonning optimal qiymatlari hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda muammoning aniq qo‘yilishi, o‘tkazilgan laboratoriya tajribalari hisoblash natijalariga mosligi, matematik hisoblashlarning aniqligi, nazariy izlanishlar bilan asoslanganligi, tadqiqot natijalari Respublika va chet elda o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda va Oliy Attestatsiya Komissiyasi ro‘yxatiga kirgan ilmiy nashrlarda maqolalar chop etilganligi hamda olingan tajriba natijalarining ishlab chiqarish sinovlarini natijalariga mos kelganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, gaz kondensatining fizik va issiqlik-fizik xossalarini e‘tiborga olib, buni takomillashtirilgan issiqlik almashinish qurilmasida isitish natijasida qurilma quvurlari ichida hosil bo‘lgan bug‘ni chiqarish hisobiga quvurlarda harakatlanayotgan xomashyoning issiqlik berish va issiqlik o‘tkazish koeffitsiyentlari hamda isitish jarayonining harorati va uzatilayotgan issiqlik miqdorini ortganligi va shuningdek, issiqlik va energiya sarfini kamayganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, qobiq quvurli issiqlik almashinish qurilmasi quvurlari ichida hosil bo‘lgan bug‘ ulushuni kamaytirish natijasida gaz kondensatining issiqlik berish koeffitsiyenti 1,24 martaga va issiqlik o‘tkazish koeffitsiyenti 1,14 martaga ortishi hisobiga qurilmaning samaradorligi va xizmat ko‘rsatish oralig‘i davomiyligining oshishiga hamda hosil bo‘layotgan mahsulotning sifati va miqdorini yaxshilanishiga, isitish jarayonining Matlab dasturidagi kompyuter modeli yaratilganligi va jarayonning optimal qiymatlari hisoblab chiqilganligi hamda gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasining energiya tejamkor texnologiyasini ishlab chiqilganligiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gaz kondensatini barqarorlashtirishda issiqlik almashinish qurilmasini takomillashtirish asosida isitish jarayonini jadallashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

qopqoq konstruksiyasi takomillashtirilgan issiqlik almashinish qurilmasi "Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi"ning 2024-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi" AJ ning 2024-yilning 10-oktabrdagi №ОП02/ЭД-3900-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu qurilmaning quvurlari ichida isitish jarayoniga ta'sir etuvchi bug'ni kamaytirishdan gaz kondensatini issiqlik berish koeffitsiyenti oshishi va isitish jarayoni uchun sarflanayotgan energiyani 12 % ga kamaytirish imkonini beradi;

suyuq va gazzimon uglevodorodlarning issiqlik almashinish jarayoni uchun takomillashtirilgan texnologiyasi "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" ning 2024-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati" ga kiritilgan ("O'zbekneftgaz" AJ "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" ning 2024-yil 21-oktabrdagi №876/CK-10 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu qurilmada bug'ni (bug' tarkibida asosan metan 44,593 %, etan 32,852 %, propan 7,685 %, butan 5,845 %, pentan 1,208 %, geksan 0,472 %, geptan va undan yuqori suyuq uglevodorodlar 0,987 %, uglerod dioksid 4,842 %, azot 1,241 %, vodorod sulfid 0,234 % gacha mavjudligi laboratoriyada aniqlandi) kamaytirib, suyuq uglevodorodlarni miqdori ortishidan quvur devorining yuzasi bilan isitiluvchi oqimning to'qnashuvi ortishi hisobiga isitish jarayonini jadallashtirib, qurilmadan chiqayotgan mahsulotning harorati 120 °C dan 135 °C gacha ko'tarilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop ettirish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 3 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi shartli belgilar, kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'kazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, shuningdek, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib

berilgan, tadqiqot natijalarni amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasida issiqlik almashinish qurilmalarining zamonaviy holati va ularni takomillashtirish”** nomli birinchi bobida neft va gazni qayta ishlash texnologiyasida qo'llaniladigan issiqlik almashinish qurilmalarining ahamiyati, quvurli issiqlik almashinish qurilmalarining asosiy konstruktiv turlari, issiqlik almashinish qurilmalarida xomashyoni isitish jarayonining asosiy qonuniyatlari, issiqlik almashinish jarayonida ishlatiladigan issiqlik tashuvchi agentlar tavsifi, issiqlik almashinish qurilmalarining samaradorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari borasidagi ilmiy ishlar va adabiyotlar tahlili keltirilgan va shu asosida, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tajriba qurilmasi tadqiq qilish va xomashyoning fizik hamda issiqlik-fizik xossalarini hisoblash va tajriba yo'li bilan aniqlash”** nomli ikkinchi bobida issiqlik almashtirgichni tajriba qurilmasining bayoni, tajriba qurilmasining tavsifi va tajriba o'tkazish metodikasi, gaz kondensatining fizik va issiqlik-fizik xossalarini tadqiq qilish, issiqlik almashinish jarayonida gaz kondensatining bug'lanish va kondensatsiyalanish issiqligini hisoblash orqali aniqlangan ma'lumotlar keltirilgan. Laboratoriya sharoitida takomillashtirilgan qobiq quvurli issiqlik almashtirgichning tajriba qurilmasida gaz kondensati namunalarning fraksion tarkibi isitish jarayonida tadqiq qilindi.


Ikki yo'li qobiq quvurli issiqlik almashtirgichning tajriba qurilmasining tavsifi va tajriba o'tkazish metodikasi asosida tajriba-sinovi olib borildi. Tajriba qurilmasida isituvchi agent quvurlararo, isitiluvchi agent quvurning ichki qismida harakat qiladi. Qurilmada isituvchi agent barqaror kondensat va isitiluvchi agent gaz kondensati yoki beqaror kondensat hisoblanadi. Issiqlik almashtirgichning tajriba qurilmasi va uning sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Issiqlik almashtirgichning tajriba qurilmasi va uning sxemasi:

1 va 2 – qurilmaning quvurlariga kirish va chiqish qismi; 3 va 4 – qurilmaning quvurlararo qismiga kirish va chiqish qismi; 5 – klapan; 6 – qurilmaning qobiq qismi; 7 – qurilmaning qopqoq kamerasi; 8 – truba to'ri; 9 – quvurlar; 10 – to'siq.

Gaz kondensatini isitishda qo'llanilgan tajriba qurilmasining texnologik sxemasi 2-rasmda tasvirlangan.



2-rasm. Gaz kondensatini isitishda qoʻllanilgan tajriba qurilmasining texnologik sxemasi: 1 – suvli sovutgich; 2 – yigʻgich; 3 – boshqarish krani; 4 – monometr; 5 – monometrik termometr; 6 – pech; 7 – tabiiy gaz sarfini hisoblagich va boshqarish krani.

Laboratoriyada tajriba uchun olingan 3 xil gaz kondensati namunalari tadqiq qilindi. Ular turli konlardan qazib chiqarilganligiga qarab, yaʼni past zichlikdagi (750 kg/m^3 gacha), oʻrtacha zichlikdagi (750 va 800 kg/m^3 oraligʻida) va yuqori zichlikdagi (800 kg/m^3 dan yuqori) gaz kondensati namunalari ajratiladi. Keyin hajmlari 10 litr boʻlgan $20 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratdagi har bir xomashyo namunasi nasos yordamida issiqlik almashinish qurilmasini kirish qismi (1) orqali qurilmaning quvurlariga haydaladi. Qurilmada boradigan jarayon $0,1 \text{ MPa}$ normal bosim hamda $0,5 \text{ MPa}$ bosimda navbat bilan olib boriladi. Isituvchi va isitiluvchi agentlarning kirish va chiqishdagi harorati va bosimlari qurilmaning kirish va chiqish qismida oʻrnatilgan termometr va monometrlar orqali nazorat qilinadi. Barqaror kondensat pechda (6) $150 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha qizdirilib, qurilmaning quvurlararo kirish qismiga (3) yuboriladi. Pechdagi barqaror kondensat tabiiy gaz sarfini hisoblagich va boshqarish krani (7) orqali kelayotgan tabiiy gaz bilan qizdiriladi. Pechda qizdirilgan yuqori haroratdagi barqaror kondensat termometr (5) va monometr (4) nazorati ostida issiqlik almashinish qurilmasining quvurlararo kirish qismiga (3) beriladi. Soʻngra, bu qurilmada issiqlik almashinish jarayoni ketadi. Issiqlik almashinish qurilmasida gaz kondensatini isishi natijasida quvurlar ichida gaz kondensat bugʻ fraksiyasi hosil boʻladi. Qurilmaning quvurlari ichida isish jarayoni borishi hisobiga bu yerda, bugʻ hissasi suyuqlikka nisbatan orta boshlaydi. Natijada quvurlarda issiqlik almashinish jarayoni pasayadi. Ushbu jarayonni jadallashtirish uchun quvurlarda toʻplanayotgan bugʻni qurilmadan tashqariga chiqarish lozim. Buni amalga oshirish uchun quvurlar ichida hosil boʻlgan bugʻni qurilmaning qopqogʻ qismida oʻrnatilgan avtomatlashtirilgan PCV turidagi klapani (5) yordamida qurilmadan tashqariga chiqariladi. Qurilma qopqogʻidan chiqayotgan gaz kondensat bugʻi suvli sovutgich (1) orqali sovutilib, suyuq holatda idishga (2) yigʻiladi va uning hajmi oʻlchab boriladi. Shuningdek, qurilma qopqogʻidagi harorat har $10 \text{ }^\circ\text{C}$ ga ortganida, qurilmaning mahsulot chiqish qismidan (2) chiqayotgan gaz kondensat fraksiyasining harorati ham yozib boriladi. Bu jarayon qopqogʻdagi harorat taxminan $55 \text{ }^\circ\text{C}$ ga (klapan yopiq holatda esa $47 \text{ }^\circ\text{C}$ edi) boʻlgunicha davom ettiriladi. Quvurlar ichida hosil boʻlayotgan bugʻni kamaytirish hisobiga qurilmada issiqlik almashinish jarayoni jadallashib boradi. Buning natijasida, gaz kondensatining harorati $20 \text{ }^\circ\text{C}$ dan $75 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha

(dastlabki holatida 60÷62 °C edi) ortadi, isituvchi agentning harorati esa 150 °C dan 90 °C (dastlabki holatida 100 °C edi) gacha pasayadi. Tajriba-sinovi natijasida o‘lchov idishida yig‘ib olingan gaz kondensatining hajmini dastlabki gaz kondensati xomashyosiga nisbatini olinib, hosil bo‘lgan bug‘ ulushi (%) hisoblab chiqiladi. Umuman olganda, ushbu jarayon sanoatda qo‘llanilganida, sarfi 20 t/s bo‘lgan beqaror gaz kondensat xomashyosi 20 °C haroratda ketma-ket kelgan issiqlik almashinish qurilmalarining ichki quvurlariga kiradi va qurilmalardan chiqqan barqaror kondensatning harorati 135 °C gacha (dastlabki holatida 120 °C edi) ko‘tarilishi aniqlandi.

Taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasida 0,1 MPa va 0,5 MPa bosimda isitish jarayoni olib borilganida, xomashyoni isishi natijasida qurilmaning quvurlari ichida hosil bo‘lgan va qopqoqda o‘rnatilgan klapan orqali qurilmadan tashqariga chiqarilgan bug‘ fraksiyasini tarkibidagi komponentlarning qaynash haroratlari Klapeyron-Klaus tenglamasi yordamida quyidagicha hisoblanadi:

$$T_1 = \left(\frac{1}{T_2} - \frac{R \cdot \ln \frac{P_1}{P_2}}{\Delta H_{nap}} \right)^{-1} \quad (1)$$

bunda, T_2 - moddaning qaynash harorati, K; P_2 - normal sharoitdagi bosim; R - universal gaz doimiysi, $R = 8,31 \text{ J/mol} \cdot \text{K}$; $\Delta H_{bug'}$ - moddaning bug‘lanish energiyasi, kJ/mol.

Gaz kondensati aralashmasi 0,5 MPa ostida issiqlik almashinish qurilmasining sanoatda mavjud va taklif etilayotgan tajriba qurilmasida isitish jarayonida olib borilgan tajriba-sinovi natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajriba-sinovi natijalari

Ishitish jarayonining davomiyligi (minut)	Gaz kondensatining qurilmaga kirishdagi harorati, °C	Isituvchi agentning qurilmaga kirishdagi harorati, °C	Mavjud issiqlik almashinish qurilmasida		Taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasida		
			Qurilmaning qopqoq qismidagi gaz kondensatining harorati, °C	Mahsulotni qurilmadan chiqishdagi harorati, °C	Qurilmaning qopqoq qismidagi gaz kondensatining harorati, °C	Mahsulotni qurilmadan chiqishdagi harorati, °C	Qurilmaning qopqoq qismidan chiqayotgan ichki quvurlarda hosil bolgan bug‘ ulushi, %
1	20	150	25	39	25	43	2
3	20	150	35	52	35	59	10
6	20	150	45	60	45	67	16
10	20	150	47	62	55	75	20

Issiqlik almashinish jarayoni turli bosimlarda (0,1 MPa va 0,5 MPa) borishi natijasida, qurilmaning qopqoq qismida o‘rnatilgan klapan chiqayotgan bug‘ fraksiyalari tarkibidagi ayrim komponentlar ya‘ni yengil uglevodorodlar (metan, etan, propan, butan), pentan uglevodorodi hamda nordon komponentlarning

(asosan vodorod sulfid, azot, uglerod IV oksidi) qaynash va bug‘lanish haroratlari hisoblab chiqilgan va uning qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Turli bosimlarda bug‘ tarkibidagi ayrim komponentlarning qaynash haroratlari, °C

	Metan	Etan	Propan	Butan	Pentan	Vodorod sulfid	Azot	Uglerod IV oksid
0,1 MPa	-161,5	-88,63	-42,1	-0,5	36,1	-60,38	-195,8	-78,5
0,5 MPa	-161,6	-50,9	4,2	49,5	88	-22	-149	-5,5

Shuningdek, tajriba asosida mavjud va taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasida stabillashtirilgan gaz kondensati va qurilma klapanidan chiqqan bug‘ fraksiyasi tarkibidagi uglevodorodlarning ulushlari (%) ishlab chiqarish sanoatining Markaziy laboratoriyasidagi LXM 80M markali gaz xromatografiyasi orqali aniqlandi (3-jadvalda keltirilgan). Olingan bug‘ fraksiyasining harorati 45°C da edi va shuningdek, ushbu bug‘ fraksiyasi tarkibidan olingan komponentlarning qiymatlari GOST 34858-2022 talabiga muvofiq keladi.

3-jadval

Mavjud va taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasida stabillashtirilgan gaz kondensati va qurilma klapanidan chiqqan bug‘ fraksiyasi tarkibidagi uglevodorodlarning ulushlari (%)

Fraksiya nomlari	Mavjud issiqlik almashinish qurilmasida stabillashtirilgan gaz kondensati fraksiyasi	Taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasida stabillashtirilgan gaz kondensati fraksiyasi	Klapanidan chiqqan bug‘ fraksiyasi
CH ₄	12,758	2,043	44,593
C ₂ H ₆	6,479	2,847	32,852
C ₃ H ₈	4,685	4,105	7,685
C ₄ H ₁₀	4,086	3,514	5,845
C ₅ H ₁₂	0,997	0,972	1,208
C ₆ H ₁₄	0,399	0,415	0,472
∑C ₇ H ₁₆ va boshqa uglevodorodlar	68,763	85,696	0,987
N ₂	0,498	0,091	1,241
CO ₂	1,296	0,317	4,892
H ₂ S va boshqa gazlar	0,047	0,009	0,234
Jami:	100	100	100

4-jadval

45 °C dagi gaz kondensat bug‘i fraksiyasi tarkidagi yengil komponentlarning issiqlik-fizik xossalari

Komponent	Bug‘ ulushi	C _p , J/(kg·K)	ρ, kg/m ³	μ·10 ⁻⁷ , Pa·c	λ, Wt(m·K)
CH ₄	0,44593	0,52	0,631	102,29	0,0217
C ₂ H ₆	0,32852	0,82	1,063	82,39	0,0214
C ₃ H ₈	0,07685	1,52	1,872	73,58	0,0205
C ₄ H ₁₀	0,05845	1,56	1,67	85,02	0,0184
N ₂ , H ₂ S, CO ₂	0,06367	0,63	1,30	15,77	0,0195
Jami:	0,97342	0,749	0,954	84,29	0,0206

Tajriba qurilmasida gaz kondensati isishidan qurilmaning qopqoq qismidagi harorat 45 °C bo‘lganida, qurilmaning quvurlarida hosil bo‘lgan hamda qopqoqda o‘rnatilgan klapandan chiqayotgan gaz kondensati bug‘ining tarkibidagi yengil komponentlarning fizik va issiqlik-fizik xossalari ko‘rsatgichlari tajriba-sinovi va emperik formulalar yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, Additivlik qoidasi asosida turli haroratlarda issiqlik almashinish qurilmasining quvurlari ichida hosil bo‘layotgan gaz kondensati bug‘i fraksiyasi tarkibidagi faqat yengil komponentlarning issiqlik-fizik xossalari ya’ni uning zichligi, kinematik va dinamik qovushqoqligi, issiqlik sig‘imi, issiqlik o‘tkazuvchanligi hisoblandi (4-jadvalda keltirilgan). Ushbu yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlar dissertatsiyada o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Matematik-statik modellashtirish orqali issiqlik almashinish qurilmasining texnologik tavsiflarini aniqlash”** nomli uchinchi bobida issiqlik almashinish muammolarini hal qilishda tizimli fikrlash, issiqlik almashinish jarayonining matematik-statik modellashtirish, issiqlik almashinish jarayonini to‘liq faktorli tajriba asosida tadqiq qilish, regressiya tenglamasining adekvatligini hamda eksperimentlar xatoliklarini tekshirish va issiqlik almashinish jarayonining optimal qiymatlari keltirilgan. Issiqlik almashinish jarayonini modellashtirishdan asosiy maqsad texnologik jarayonlarning fizik-kimyoviy, gidrodinamik va konstruktiv kattaliklarini o‘zaro bog‘laydigan tenglamalarni tuzishdan iborat.

Issiqlik almashinish jarayoni paytida bir nechta texnologik omillarning isitish jarayoniga ta'sirini o‘rganish uchun laboratoriya sharoitida sanoatda taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasida bir necha marta tajriba-sinovi o‘tkaziladi. Issiqlik almashinish jarayonida ta’sir etuvchi omillarni aniqlab olinadi. 5-jadvalda issiqlik almashinish jarayonini matematik modellashtirishda ta’sir etuvchi omillarning chegaraviy qiymatlari keltirilgan.

5-jadval

Ta’sir etuvchi omillarning chegaraviy qiymatlari


	Gaz kondensati namunalarining fraksion tarkibi (%)	Isitish jarayonining harorati (°C)
Omillar	z_1	z_2
Pastki daraja	2,5	35
Yuqori daraja	8	55

Regressiya tenglamasining muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlash asosida, kodlangan o‘zgaruvchilar asosida regressiya tenglamasi ishlab chiqildi.

$$y = 0,36 + 1,3z_1 + 0,22z_2 \quad (2)$$

Ushbu tenglamaga asosan Matlab dasturidagi matematik modelni grafigi chizildi. 3-rasmda hosil bo‘lgan bug‘ ulushini gaz kondensati namunalarining konsentratsiyasi va isitish jarayonining haroratiga bog‘liq o‘zgarishi grafigi tasvirlangan. Bunda modellashtirishda ta’sir etuvchi omillar ya’ni isitish jarayonining harorati 51,8 °C va gaz kondensati namunalarining konsentratsiyasi

6,96 % bo‘lganida, qurilmaning qopqoq qismida o‘rnatilgan klapanidan hosil bo‘lgan bug‘ ulushi 19,95 % ga tengligi anqlandi.



3-rasm. Hosil bo‘lgan bug‘ ulushini gaz kondensati namunalarining konsentratsiyasi va isitish jarayonining haroratiga bog‘liq o‘zgarishi.

6-jadvalda takomillashtirilgan issiqlik almashinish qurilmasida olib borilgan isitish jarayonining jadallashtirishning optimal qiymatlari ya’ni tajriba hamda matematik-statik modellashtirish usullari asosida aniqlangan qiymatlari keltirilgan.

6-jadval


Tajriba va modellashtirish natijasida olingan qiymatlarni taqqoslash

No	Ta’sir etuvchi omillar	Gaz kondensati namunalarining fraksiyon tarkibi (%)	Isitish jarayonining harorati (°C)	Hosil bo‘lgan bug‘ ulushi (%)
1	Tajribadan olingan qiymat	7	52	20
2	Modellashtirish natijasida olingan optimal qiymat	6,96	51,8	19,95

Dissertatsiyaning “**Ishlab chiqarish sharoitida issiqlik almashinish qurilmasini tajriba sinovlari va iqtisodiy samaradorligini baholash**” nomli to‘rtinchi bobida issiqlik almashinish qurilmasining konstruktiv o‘lchamlari va gidrodinamik parametrlari aniqlandi, issiqlik jarayoniga ta’sir etuvchi omillarning issiqlik samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi, issiqlik almashinish jarayonining moddiy va issiqlik balanslari tuzildi, gaz kondensatini barqarorlashtirishda isitish jarayonining tasnifi hamda sanoatdagi issiqlik almashinish qurilmalarining solishtirma tahlil qilindi va shuningdek, taklif etilayotgan qurilmani joriy qilishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikka erishishni tavsiflovchi matematik ifodalar keltirilgan.

Issiqlik almashinish qurilmasida issiqlik tashuvchi omillarning issiqlik samaradorligiga ta’siri grafiklar asosida tahlil qilindi (dissertatsiyaning 4-bobida to‘liq berilgan). 4-rasmda issiqlik almashinish qurilmasining qopqoq klapanidan


hosil bo'lgan bug' ulushini isitish jarayonining haroratiga bog'liq o'zgarish grafigi ko'rsatilgan.



4-rasm. Gaz kondensati namunalaridan quvurlar ichida hosil bo'lgan bug' ulushini isitish jarayonining haroratiga bog'liq o'zgarishi.

Ushbu rasmda harorat 55 °C ga yetganida, past zichlikdagi gaz kondensatidan 20 % yengil bug', o'rtacha zichlikdagi gaz kondensatidan 17 % o'rtacha bug' va yuqori zichlikdagi gaz


kondensati namunasidan esa quvurlar ichida hosil bo'lgan 12 % og'ir bug' fraksiyalari qurilmaning qopqoq qismida o'rnatilgan klapan orqali nazorat qilinishi tasvirlangan (4-rasm).



5-rasm. Bug' hissasini kondensat xomashyosiga bog'liqlik grafigi

Ushbu rasmda issiqlik almashinish qurilmasida gaz kondensati xomashyosining namunalarini 35 °C gacha isitilganda, qurilmaning klapani orqali quvurchalarda hosil bo'lgan yengil bug'

fraksiyasining ulushi 8 %, 45 °C da o'rtacha bug' fraksiyasining ulushi 6,5 % va 55 °C gacha isitilganda esa 2,5 % hosil bo'lgan og'ir bug' fraksiyasi ulushining chiqishi tasvirlangan (5-rasm).




6-rasm. Gaz kondensati aralashmasining issiqlik berish koeffitsiyentini aralashmadagi quvurlardagi suyuq va bug' hissasining nisbatiga bog'liqligi.

Sanoatda mavjud qurilmaning quvurlarida gaz kondensati aralashmasidagi suyuq va bug' hissasining (%) nisbatlari 100/0;

99/1; 90,5/9,5; 83,5/16,5; 80/20 ekanligi aniqlandi. Agar suyuq va bug' hissasining nisbati 100/0 bo'lganida, aralashmaning issiqlik berish koeffitsiyenti 227 Vt/(m²·K) bo'lib, 224,79 Vt/(m²·K), 206 Vt/(m²·K), 190,54 Vt/(m²·K) va


80/20 bo'lganida issiqlik berish koeffitsiyenti 182,8 $Vt/(m^2 \cdot K)$ gacha kamayadi (6-rasm).



7-rasm. Harorat o'zgarishini gaz kondensatining issiqlik-fizik xossalariga ta'siri.

7-rasmda harorat o'zgarishini gaz kondensatining issiqlik-fizik xossalariga ta'sir etish grafigi tasvirlangan. Bunda harorat 45 °C, 50 °C, 55 °C bo'lganida, gaz kondensat aralashmasining issiqlik berish koeffitsiyenti 227 $Vt/(m^2 \cdot K)$,


206 $Vt/(m^2 \cdot K)$ va 182,8 $Vt/(m^2 \cdot K)$ hamda issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti esa 0,1602 $Vt/(m^2 \cdot K)$, 0,1596 $Vt/(m^2 \cdot K)$ va 0,1595 $Vt/(m^2 \cdot K)$ gacha kamayganligi va shuningdek, gaz kondensatining issiqlik sig'imi 2175 $J/(kg \cdot K)$, 2210 $J/(kg \cdot K)$ va 2225 $J/(kg \cdot K)$ gacha ortganligi grafik shaklda tasvirlangan.



8-rasm. Hosil bo'lgan bug'ning konsentratsiyasini quvurning uzunligiga bog'liqlik grafigi.

Tajriba-sinovi natijalariga ko'ra, mavjud qurilmaning quvurlarida harakatlanayotgan gaz kondensatini qizdirish natijasida qurilmaning uzunligi bo'yicha quvurlarda hosil


bo'lgan bug'ning konsentratsiyasi 20 % va shuningdek, ishlab chiqarishda taklif etilayotgan qurilmada esa 1 % gacha bug' paydo bo'lganligi aniqlandi (8-rasm).



9-rasm. Quvurlarda hosil bo'lgan bug' ulushini gaz kondensati aralashmasining issiqlik berish koeffitsiyentiga bog'liqlik grafigi.

Qurilmaning quvurlarda hosil bo'layotgan bug'ni, uning qopqog'ida o'rnatilgan klapandan ajratilgandan so'ng, gaz kondensatining issiqlik

berish koeffitsiyentlari 227 $Vt/(m^2 \cdot K)$ ga ortganligi va shuningdek, mavjud qurilmaning quvurlari ichida hosil bo'lgan bug'ning ulushi 20 % bo'lganida esa gaz kondensatining issiqlik berish koeffitsiyentlari 182,8 $Vt/(m^2 \cdot K)$ gacha kamayadi (9-rasm).



10-rasm. Jadallashish darajasini gaz kondensati aralashmasining issiqlik berish koeffitsiyentiga bog'liqligi.

Ushbu 10-rasmda, sanoatda mavjud issiqlik almashinish qurilmasida gaz kondensati aralashmasining issiqlik berish koeffitsiyenti 182,8 $Vt/(m^2 \cdot K)$ bo'lganida isitish jarayonining jadallashish darajasi 100 %,

taklif etilayotgan qurilmada esa gaz kondensati aralashmasining issiqlik berish koeffitsiyenti 190,54 $Vt/(m^2 \cdot K)$ da 104,2 %, 206 $Vt/(m^2 \cdot K)$ da 112,7 %, 222,58 $Vt/(m^2 \cdot K)$ da 121,7 % hamda 227 $Vt/(m^2 \cdot K)$ bo'lganida, isitish jarayonining jadallashish darajasi 124 % ga teng bo'lganligi tasvirlangan.

7-jadvalda gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasining moddiy balansining qiymatlari keltirilgan.

7-jadval

Gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasining moddiy balansi

Kirish	kg/soat	tonna/yil	%
Beqaror gaz kondensati	25000	200000	100
Metan	296	2368	1,184
Etan	308	2464	1,232
Propan	335,25	2682	1,341
Butan	328,75	2630	1,315
Pentan	314	2512	1,256
Geksan	309,5	2476	1,238
Geptan va undan yuqori uglevodorodlar	22995,25	183962	91,981
N ₂	34,75	278	0,139
H ₂ S	4,25	34	0,017
CO ₂	74,25	594	0,297
Chiqish	25000	200000	100
Barqaror gaz kondensati	23430,5	187444	93,722
Propan-butan aralashmasi	557,75	4462	2,231
Deetanizatsiya gazlari	977,75	7822	3,911
Atmosfera gazlari	34	272	0,136

8-jadval

Gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasining issiqlik balansi

Belgilanishi	Sarf ko'rsatgichi		Yillik harajat	
	O'lchov birligi	Iste'mol ko'rsatgichi	O'lchov birligi	Miqdori
Gaz kondensati xomashyosi	tonna	25	ming tonna	791,4488
Pechlarga yoqilg'i gazi	m ³	31,53	m ³	25200
Aylanma suv	m ³	120,7	m ³	965,6
Suv bug'i, tonna	tonna	1,92	ming tonna	15360
Issiqlik energiyasi: - jarayon uchun;	kWt	726	ming kWt	5710
-qurilma uchun	kWt	1033	ming kWt	8300

8-jadvalda gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasining issiqlik balansi keltirilgan.


9-jadvalda sanoatda mavjud hamda taklif etilayotgan quvurli issiqlik almashinish qurilmasi va ularda boradigan jarayonlarni taqqoslash qiymatlari keltirilgan.

9 -jadval

Sanoatda mavjud hamda taklif etilayotgan quvurli issiqlik almashinish qurilmasi va ularda boradigan jarayonlarni taqqoslash qiymatlari

Issiqlik almashinish qurilmasining ko'rsatgichlari	Mavjud qurilmada	Taklif etilayotgan qurilmada
IAQ qopqoq qismida klapan o'rnatilgan	Mavjud emas	Mavjud
Isituvchi agentni kirishdagi harorati, °C	240	220
Isituvchi agentni chiqishdagi harorati, °C	95	85
Isitiluvchi agentni kirishdagi harorati, °C	20	20
Isitiluvchi agentni chiqishdagi harorati, °C	120	135
Issiqlik almashinish yuzasi, F, m^2	83	87
Issiqlik berish koeffitsiyenti, $\alpha, Vt/(m^2 \cdot K)$	182,8	227
Issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti, $K, Vt/(m^2 \cdot K)$	110	125
Uzatilayotgan issiqlik miqdori, Q, Vt	360360	598125

11-rasmda gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasining texnologik (sanoatda mavjud) va prinsipial texnologik (sanoatda taklif etilayotgan) sxemalarining solishtirma tahlili keltirilgan.



11-rasm. Gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasining texnologik (a) va prinsipial texnologik (b) sxemalari: 1 – separator; 2 – IAQ-1/1; 3 – IAQ-1/2; 4 – barqarorlashtirish kolonnasi; 5 – pech; 6 – nasos; 7 – utilizator; 8 – sovutgich qurilmasi; 9 – klapan; 10 – sig‘im; GK – gaz kondensati; BK – barqaror kondensat; M – mash‘ala; MEA – metan-etan aralashmasi.

Bu rasmda gaz kondensatini barqarorlashtirish qurilmasining yangi prinsipial texnologik sxemasi issiqlik almashinish qurilmasiga (IAQ-1.1) o'rnatilgan klapan (9) va sig'imning (10) mavjudligi bilan barqarorlashtirish qurilmasining texnologik sxemasidan farqlanganligi tasvirlangan.

10-jadvalda mavjud va taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasini ishlab chiqarishda joriy qilishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik qiymati keltirilgan.

10-jadval

Iqtisodiy samaradorlik

Mavjud qurilmada (so‘m)		Taklif etilayotgan qurilmada (so‘m)		Farq (so‘m)	
Soat	Yillik	Soat	Yillik	soat	yillik
256873	2250192614	226051	1980208557	30 822	270 mln

XULOSA

1. Tajriba qurilmasida 3 xil gaz kondensati namunalari (past, o‘rtacha va og‘ir zichlikdagi gaz kondensati namunalari) 35 °C da qizdirilganda o‘rtacha 7 %, 45 °C da 13 % va 55 °C da esa 18 % bug‘ fraksiyasi qurilmaning quvurlari ichida hosil bo‘ladi. Shuningdek, tajriba asosida gaz kondensati xomashyosi qopqoq konstruksiyasi takomillashtirilgan issiqlik almashinish qurilmasida ishidan quvurlar ichida hosil bo‘lgan bug‘ qurilmaning qopqoq qismida o‘rnatilgan klapan orqali chiqishi tadqiq qilindi hamda bug‘ tarkibidagi komponentlarning fizik, issiqlik-fizik xossalari va miqdori Klapeyron-Klaus tenglamasi orqali tahlil qilindi;

2. Issiqlik almashinish jarayonini modellashtirishda ko‘p faktorli eksperiment rejasi asosida ta’sir etuvchi omillarning ya’ni isitish jarayonining harorati (35 °C dan 55 °C gacha) va gaz kondensati namunalarning konsentratsiyasini (2,5 foizdan 8 foizgacha) chegaraviy qiymatlari hamda Student kriteriyasiga muvofiq muhimlik va muhim bo‘lmagan koeffitsiyentlarini aniqlash asosida regression model ishlab chiqildi;

3. Eksperimental va nazariy natijalarning adekvatligi, muhimlik sathiga mos erkinlik darajasi bo‘yicha me’zonning qiymati Fisher taqsimotining kritik nuqtalari jadvaliga muvofiqligi $F_{hisob} = 3,37 < F_{jadval} = 4,5$ ekanligi bilan asoslandi;

4. Quvurli isitish qurilmasi quvurlari ichida bug‘ hosil bo‘lishini oldini olish orqali isitish jarayonida sarflanadigan energiyani kamaytirish imkonini beruvchi rejimlar, jumladan, tajriba va modellashtirishdan olingan qiymatlar taqqoslash asosida isitish jarayonining jadallashish darajasi 19,95 % ga teng bo‘lishi uchun isitish jarayonining harorati 51,8 °C va gaz kondensati fraksiyalarining foiz miqdori esa 6,96 % ga teng bo‘lgan optimal qiymatlari hisoblab chiqildi;

5. Takomillashtirilgan issiqlik almashinish qurilmasi quvurlari ichida hosil bo‘lgan bug‘ni kamaytirish natijasida gaz kondensatini quvurlarda uzatilayotgan issiqlik miqdori 360360 Vt dan 598125 Vt ga, issiqlik berish koeffitsiyenti 182,8 Vt/(m²·K) dan 227 Vt/(m²·K) gacha va issiqlik o‘tkazish koeffitsiyenti esa 110 Vt/(m²·K) dan 125 Vt/(m²·K) gacha ortishi hisoblab chiqildi;

6. Quvurli issiqlik almashinish qurilmasining xavfsiz, uzoq muddatli ishlashi, yuqori haroratga bardoshligi, quvurlarda issiqlik berish koeffitsiyentini yuqoriligi sababli energiya tejamkor va issiqlik ko‘rsatkichlari yaxshilangan, qopqoq konstruksiyasi takomillashtirilgan tajriba qurilmasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, sanoatda taklif etilayotgan quvurli issiqlik almashinish qurilmasining amaliy joriy etilishi Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi hamda Muborak gazni qayta ishlash zavodining 2024-2026-yillardagi istiqbolli rejalariga kiritildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.T.16.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ИСЛОМОВ АЛИШЕР НУРИЛЛАЕВИЧ

**ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ПРОЦЕССА НАГРЕВА ГАЗОВОГО
КОНДЕНСАТА ПРИ ЕГО СТАБИЛИЗАЦИИ НА ОСНОВЕ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕПЛООБМЕННОГО УСТРОЙСТВА**

02.00.08 – Химия и технология нефти и газа

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)
по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/T3558.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном техническом университете. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета (www.bstu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: Абдурахмонов Олим Рустамович
доктор технических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Дустов Хамро Бозорович
доктор химический наук, профессор
Исмаилов Ойбек Юлибоевич
доктор технических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится «25» марта 2026 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.16.05 по присуждению учёных степеней при Бухарском государственном техническом университете. (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: bdtu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного технического университета (зарегистрирован под номером №493). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15. Тел.: (+998 65) 223-78-84).

Автореферат диссертации разослан 12-марта 2026 года.
(протокол реестра №23 от «05» декабря 2025 г.).



С.Ф.Фозилов
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

А.Т.Олтиев
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

Х.Б.Дустов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор химических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире природный газ и нефть считаются основными источниками тепла и энергии. В связи с этим большое значение имеет разработка научно-практических основ совершенствования конструкции оборудования, используемого для переработки этих ресурсов и производства продукции, соответствующей международным стандартам, обеспечения их эффективной и безопасной эксплуатации, продление срока службы, повышения энергетической эффективности за счёт снижения теплотерь, а также создания энергосберегающих технологий.

В мире ведутся масштабные научные исследования, направленные на повышение производительности теплообменных установок в промышленности и разработку энергосберегающих технологий. В соответствии с этим особое внимание уделяется таким приоритетным направлениям, как транспортировка углеводородного сырья, рациональная организация процессов теплоотдачи, повышение тепловой эффективности, снижение тепловых потерь, а также разработка компактных и инновационных технологий теплообменных аппаратов, обеспечивающих контроль гидродинамических режимов потоков углеводородов в трубопроводах, сопряжённых с теплообменным оборудованием, и одновременно способствующих сокращению энергетических затрат.

В нашей Республике проводятся исследования, направленные на качественный переход нефтегазовой отрасли на новый уровень развития, модернизацию производства, внедрение инновационных технологий, расширение ассортимента, объёмов и качества выпускаемой продукции. В Стратегии развития Нового Узбекистана определены важные задачи по «выводу промышленности на качественно новый уровень, глубокой переработке местного сырья, ускорению производства готовой продукции, освоению новых видов изделий и технологий»¹. В этом направлении особое значение имеет организация оптимальных гидродинамических режимов потоков сырья в теплообменных аппаратах, ускорение процесса нагрева на основе совершенствования теплообменного устройства стабилизации газового конденсата, широкое внедрение энергосберегающего оборудования и технологий в производство.

Данное диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-3238 от 23 августа 2017 года «О мерах по дальнейшему внедрению современных энергоэффективных и энергосберегающих технологий», Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-307 от 6 июля 2022 года «Об организационных мерах по

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», №ПП-309 от 7 июля 2022 года «О мерах по созданию Образовательно-производственного кластера в нефтегазовой отрасли», №ПП-436 от 12 декабря 2022 года «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года», и других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII «Химические технологии и нанотехнологии».

